

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI ME'MORCHILIGI (SAMARQAND MISOLIDA)

Shdpi talabasi Rustamova Sevinch Faxriddin qizi
Ilmiy rahbar dots. Mahmudov Dilshod Abdixalil o'g'li

Annotatsiya. *Ushbu maqola Temuriylar davrida Samarqand shahrida olib borilgan bunyodkorlik sohasidagi o'zgarishlar tahlil qilingan.*


Kalit so'zlar: *Samarqand, Klavixo, Hisor, Qal'a, Fathnoma, Go'ri Amir, Muhammad Sulton, pape-mashe uslubi, Bibixonim, Registon.*

Amir Temur jahon tarixida davlat boshqaruvida beqiyos va uzoqni ko'ra oluvchi davlat arbobi bo'lib, XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asr boshlarida Movarounnahrda milliy birlikni yuzaga keltirgan “Temuriylar davlati”ga asos solgan. Mamlakatning bir markaz ostida birlashishi va mo'g'ullar bosqinidagi vayrongarchiliklardan so'ng tinchlikning o'rnatilishi davlatning iqtisodiy va madaniy rivojiga ta'sir ko'rsatgan. Bu davrda ilm-fan, adabiyot va san'at, me'morchilik va hunarmandchilik ravnaq topdi. Temurning o'zi boshqa yurtlarda urush olib borayotgan bir paytda davlat obodonchiligiga, ayniqsa, me'morchilik – shaharlarni qayta tiklash va yangi shaharlar bunyod etishga alohida e'tibor qaratdi. 1404-1406-yillarda Samarqandda bo'lgan Ispaniya elchisi Gonzales de Klavixo davlat obodonchiligi va shaharlarning mahobati, Temur davrida minglab olim, san'atkor va me'morlarning Samarqandga oldirib keltirilganligi haqida ma'lumot beradi.[1] Bunyodkorlik Amir Temur davrida davlat miqyosiga ko'tarilgan edi, desak mubolag'a bo'lmaydi. U dastavval saltanat poytaxti etib belgilangan Samarqandni dunyoning eng ulug'vor shahriga aylantirdi, mahobatini ko'rsatish uchun atrofida Damashq, Bag'dod, Misr, Sheroz, Sultoniya kabi mashhur shaharlari nomi bilan atalgan qishloqlarni barpo etgan. Ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo quyidagi fikrlarni ta'kidlagan: “Bog'lar ichida Gulbog', Bog'i Dilkusho, Bog'i Chinor, Bog'i Nav va boshqa bog'lar nomi bor. Samarqandda Ko'ksaroy, Amir Temur Jome masjid, Qusam ibn Abbos me'moriy majmui, Shahrisabzda Dorut-Tilovat majmui, Oqsaroy, Dorus-Saodat majmui, Turkiston shahrida Xoja Ahmad Yassaviy xonaqoh-maqbarasi, Toshkent yaqinida Zangi ota maqbarasi, Shoxruxiya, Baylaqon shaharlarining bunyod etilishi, Tabriz, Bag'dod va Gurganch shaharlarining qayta tiklanishi...” [2]

Amir Temur va Temuriylar davridan bizning kunlarga saqlanib qolgan muhtasham san'at obidaları o'z davrida Sohibqiron homiyligida mamlakatda me'morchilik va shaharsozlik g'oyat rivojlanganligidan dalolat beradi. Bu davrda me'morchilik ayniqsa ravnaq topdi. Sohibqironning me'moriy bunyodkorligi sohasidagi ishlarini poytaxt Samarqand shahrida olib borilgan me'morchilik ishlari va hozirgacha saqlanib qolgan noyob va nodir obidalar misolida ko'rishimiz mumkin. Amir Temur davrida loyiha tuzish san'ati rivojlanib, hatto ijodkor me'mor va muhandislar o'rtasida o'zaro tanlovlar o'tkazilgan va eng yaxshisi tavsiya etilgan. Bunyod etilayotgan me'moriy obida har jihatdan mukammal, xushqad, shakl-u shamoyili mutanosib, bezaklari nafosat bilan yetuk san'at asari darajasida bajarilgan. O'sha davr hujjatlarida me'morlardan Xoja Mahmud Dovud va Muhammad Jald,

Muhammad ibn Mahsud Isfahoniy, bog‘ tuzish ustasi Shihobuddin Ahmad Zardakashiy, musavvir va naqqosh Abdulhay Bag‘dodiy, toshlaroshlik ustasi zargar Oltin, me‘moriy yozuvlar xattoti Shayx Muhammad Tabriziy kabi nomlarni uchratish mumkin. Biroq ustoz san‘atkorlar nomlarining aksariyati unut bo‘lib ketgan. XIV asrlarda Muhammad Sharif Samarqandiy va Ota Muhammad Buxoriy nomlari saqlanib qolgan. [3]

XIV asrning 70-yillaridan boshlab dastlab poytaxt bo‘lmish Samarqandning qurilishiga alohida e‘tibor qaratadi. Samarqandning shahar ko‘rinishida arxitekturaviy planlarida asosiy e‘tibor uning “Qal‘a” arki va Hisor – shaharning mustahkamlanishiga qaratilgan edi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shaharning hisor qismi Samarqandni mo‘g‘ullar egallaguniga qadar bo‘lgan qadimgi devorlar o‘rnida bunyod etilgan. Undan so‘ng shahar atrof mahallalari keyin esa qishloqjoylari – tumanlar cho‘zilib ketgan edi. Amir Temur hijriy 773-yildan boshlab hozirgi (1371-1372) shahar mudofaa devorlari qurdira boshlaydi. Ular kunga qadar saqlanib qolmagan bo‘lsa-da, XIV asr miniatura san‘ati devorlarning tashqi ko‘rinishi haqida umumiy tasavvur qilishga yordam beradi. Mudofaa devorlari baland bo‘lib, ularning atrofi xandaqlar bilan o‘ralgan. Ularning qurilishida asosan g‘isht va paxsadan foydalanilib, har burchagida burchlari va nishon tuynukli kungurador devorlar bo‘lgan. O‘sha davrda shahar darvozalarining qurilishiga alohida e‘tibor qaratilgan. Ular oltita bo‘lgan: Shimolda – Ohanin va Shayxzoda, g‘arbda – Chorsu, janubda – Korizgoh va So‘zangaron, sharqda – Feruza. XIV asrga oid bo‘lgan “Fathnoma” qo‘lyozmasi miniaturalarida Ohanin darvozasining baland toqli minoralari, burch va nishon tuynuklari bo‘lganligi haqida aytib o‘tgan. Peshtoqning romlari, kunguralari, ark tokchalarida ko‘k rangli koshinlar bilan bezalgan. Peshtoq ustidagi naqshlar orasida yozuvlar ham bo‘lgan. [4] Temur davrida qurilgan binolarning juda oz qismi saqlanib qolgan bo‘lsa-da, hozirgi kunda ular xaroba holiga kelib qolgan.



Samarqand tarxi[5]

XIV asrning 70-yillarining oxirlariga kelib, Samarqand anchagina mustahkamlangan va unda anchagina inshootlar paydo bo‘lgan. Samarqand shahri temuriylar homiyligida gullab-yashnagan fors, islomiy va Markaziy Osiyo me‘moriy uslublarining uyg‘unligini namoyish etuvchi muhtasham inshootlar bunyod etilgan. Xususan, Go‘ri Amir, Bibixonim nomi bilan bog‘liq maqbara, masjid va madrasa hamda boshqa me‘moriy obidalar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Go‘ri Amir maqbarasi 1404-yilda vafot etgan temuriy shahzoda Muhammad

Sultonga atab, bobosi Amir Temur tomonidan bunyod ettirilgan bo'lib, bu maqbarada Amir Temurning o'g'illari Umarshayx, Mironshoh va Shohruh, nabiralari Muhammad Sulton, Mirzo Ulug'beklar dafn etilgan. Yuksak did va nafosat, shuningdek, arxitekturaviy shakl va dekor san'atiga boy bo'lgan bu obida jahon durdonalari qatoridan joy olgan. Maqbaraning gumbazozligiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, u 15x12.5 m o'lchamda qurilgan bo'lib, 64 qovurg'ali qilingan. Devori ko'kimtir oniks toshlari bilan izora ya'ni bezaklangan bo'lsa, ichki qism pape-mashe uslubidan foydalanilib bezatilgan. Maqbara hajmining aniqligi, shaklining oddiyligi, tashqi va ichki bezaklarning boyligi maqbara arxitekturasining monumental va ulug'vorligini ko'rsatadi va uni dunyodagi eng mashhur me'moriy durdonalar qatoriga qo'shgan.[6] Yuqorida ta'kidlangan Bibixonim madrasa, masjid va maqbarasi ya'ni Bibixonim majmuasi bevosita Amir Temurning rafiqasi Bibixonim (asl ismi Saroymulxonim) nomi bilan bog'liq. Majmua 1399-1404-yillarda Temur tomonidan rafiqasiga atab qurdirilgan.[7] Shuni ta'kidlash joizki, Amir Temur tomonidan majmua qurilishiga alohida e'tibor qaratilgan. Chunonchi, 1399-yil 10-mayda madrasaga to'xtab o'tgan sohibqiron ayvon va peshtoqdagi xatoliklar tufayli madrasa me'morlari Xoja Mahmud Dovud va Muhammad Jaldlarni jazolaydi. Keyinchalik esa madrasa peshtoqlari buzib tashlanadi. Majmuaning uchinchi qismi bo'lgan maqbara qurilishida Saroymulxonimning o'zi ham qatnashgan bo'lib, aytilishicha, u o'z otasidan qolgan baldoqni sotuvga qo'yib, pulini maqbara qurilishiga ishlatgan ekan. E'tiborga molik jihati shundaki, majmua qurilishiga hind ustalari ham jalb etilgan bo'lib, bu davr me'morchiligida shakl va proporsiyalarni o'zida jumladan relyefli uslub keng tarqalgan. Bu uslubda Bibixonim masjidi va Amir Temur sag'anasi qurilgan bo'lib, ayni shu uslubda qurilgan jahon durdonlari hisoblanadi.[8] Registon maydonini obodonlashtirishga Mirzo Ulug'bek davriga kelib, alohida e'tibor qaratala boshlandi. Amir Temur davriga qadar shahar darvozalaridan kelgan olti asosiy yo'llarning o'zaro kesishuvida joylashgan bu hudud me'moriy jihatdan tartibsiz ahvolda edi. Mirzo Ulug'bek me'morlarga Samarqand markazida perimetri bo'ylab to'rtburchak shaklidagi maydonni yaratish masalasini qo'ygan va bunyodkorlik ishlari boshlab yuborilgan edi. Registon maydonining XV asrdagi ko'rinishi haqida "Boburnoma"da quyidagilar keltirilgan: "Ulug'bek Mirzoning imoratlaridin Samarqand qal'asining ichida madrasa va xonaqohdur. Xonaqohning gunbazi bisyor ulug' gunbazdur, olamda oncha ulug' gunbaz yo'q deb nishon berurlar. Yana ushbu madrasa va xonaqohga yovuq bir yaxshi hammom solibtur, Mirzo hammomig'a mashhurdur, har nav' toshlardan farshlar qilibtur. Xuroson va Samarqandta oncha hammom ma'lum emaskim, bo'lg'ay. Yana bu madrasaning janubida bir masjid solibtur, masjidi Muqatta' derlar. Bu jihattin Muqatta' derlarkim, qit'a-qit'a yig'ochlarni tarosh qilib, islmiy va xitoy naqshlar solibturlar, tamom devorlari va saqfi ushbu yo'sunluqtur. Bu masjidning qiblasiga bila madrasa qiblasining samti munajjim tariyqi bila amal qilibturlar"[9]

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki Temuriylar davrida me'morchiligi ravnaq topdi va bu davrda o'ziga xos uslublar vujudga kelib, dunyo hamjamiyatini lol qoldirib kelmoqda. Temuriylar davrida Samarqand me'morchiligi O'rta Osiyo madaniyatining yuksak cho'qqilaridan biri hisoblanadi. Bu davrda shahar rivojlanib, nafaqat Samarqand, balki butun Movarounnahr hududida yodgorliklar barpo etilgan. Bu jihatlarni hisobga olgan holda

Samarqand shaharsozligi va me'morchiligini o'rganish hozirda ham dolzarb masala hisoblanadi.

ADABIYOT VA MANBALAR:

1. “Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyat va san’at” maqolalar to’plami, T-1996, 3-4-b.
2. Muhammad Ali “Amir Temur solnomasi”, T-2008,11-12-b.
3. S.Saidosimov, A.Axmedov, B.Ahmedov “Amir Temur jahon tarixida”, T-2001, 146-148-b.
4. O’zbekiston SSR Fanlar akademiyasi “Samarqand tarixi”, O’zSSR “Fan” nashriyoti, T-1971, 242-243-b.
5. T.Fozilov “Temuriylar davrida Movarounnahr me’morchiligi va shaharsozligining rivojlanishi (Samarqand shahri misolida)” maqolasi, jemma.innovascience.uz
6. M.M.Vaxitov, Sh.R.Mirzayev “Me’morchilik tarixi” I qism, T-2010, 130-132-b.
7. P.Sh.Zohidov “Me’mor olami”, T-1996, 81-b.
8. S.Davletov, M.Abdullayev “O’zbekistonning me’moriy yodgorliklari tarixi”, T-2022, 74-77b.
9. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”, T-1989, 45-b.